

ALISHER NAVOIY QIT'ALARIDA DUNYO OBRAZINING RAMZIY VA BADIY TALQINI

Shoirakhon KHUJAEVA,
ToshDO'TAU doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
shoiraxon24@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20676989>

Annotatsiya. Mazkur tezis Alisher Navoiy qit'alaridagi dunyo obrazining ramziy va badiiy talqinini o'rganishga bag'ishlanadi. Unda "To'nni zarbaft aylabon..." qit'asi misolida shoir ijodida dunyo obrazining tamsil, tashbeh, tazod va iyhom kabi badiiy vositalar orqali chuqur falsafiy mazmunda ochib berilishi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: badiiy obraz, g'oya, konsepsiya, ramziy talqin, badiiy tasvir vositalari, tasavvufiy-falsafiy qarash.

Аннотация. Данный тезис посвящён исследованию символично-художественной интерпретации образа мира в кытах Алишера Навои. В нём на примере кыты «Тунни зарбафт айлабон...» рассматривается раскрытие образа мира в творчестве поэта через такие художественные средства, как тамсил (аллегория), ташибех (сравнение), тазод (антитеза) и ихом (двусмысленность), что позволяет передать глубокое философское содержание.

Ключевые слова: художественный образ, идея, концепция, символическая интерпретация, средства художественной выразительности, суфийско-философское мировоззрение.

Annotation. This thesis is devoted to the study of the symbolic and artistic interpretation of the image of the world in Alisher Navoi's qit'as. It examines, on the example of the qit'a "Tonni zarbaft aylabon...", the representation of the image of the world in the poet's work through artistic devices such as allegory (tamsil), simile (tashbeh), antithesis (tazod), and ambiguity (iyhom), which convey a profound philosophical meaning.

Key words: artistic image, idea, concept, symbolic interpretation, means of artistic expression, sufi-philosophical worldview.

Alisher Navoiy ijodi turkiy adabiyotda dunyo va inson munosabatini eng chuqur falsafiy-estetik darajada yoritgan badiiy tizimlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Buyuk shoirning yirik hajmli lirik asarlarida mazkur obraz keng ko'lamda tasvirlangan bo'lsa, kichik hajmli asarlarida, xususan, qit'alarida dunyo obrazi bevosita tasvir orqali emas, balki ramziy ifodalar, keskin tamsillar va ziddiyatli badiiy qarama-qarshiliklar vositasida ochib beriladi. Bu esa dunyo haqidagi tasavvurni oddiy hayotiy voqelikdan ko'tarib, uni tasavvufiy-falsafiy mushohada darajasiga olib chiqadi.

Xususan, quyidagi qit'ada yaltiroq chivin obrazi vositasida dunyoparastlik illati keskin tanqid ostiga olinadi:

To 'nni zarbaft aylabon xiffatdin uchqan har taraf,

Yo 'q ajab gar bor esa dunyo matoi kom anga.

Ul chibinkim, ko 'zga oltun yanglig' yashnar xil'ati,

Ko 'pragi, bilkim, najosat uzradur orom anga. [Навоий, 1988:549].

Mazkur qit'a "Takalluf ahlining dunyog'a sheftalig'idavu dunyolikka fireftalig'ida", ya'ni "Takalluf ahlining dunyoga berilganligi va dunyolikka aldanganligi bayonida" deb nomlangan bo'lib, unda shoir dunyoga giriftor bo'lgan toifani keskin tanqid qiladi. E'tiborlisi, muallif sarlavhaning o'zidayoq bunday kishilarni "takalluf ahli" deb atab, iyhom san'ati vositasida mazmunni chuqurlashtiradi. Zero, "takalluf" so'zi ikki xil ma'noni anglatadi: bir tomondan, "o'zini kulfatga solish", ikkinchi tomondan esa "hashamat" [Навоий асарлари луғати, 1972:588]. Shu tariqa, shoir dunyoparast kishilarning zohiran hashamatga intilib, botinan esa o'zlarini kulfatga giriftor etayotganlarini badiiy yo'sinda ochib beradi.

Qit'ada asosiy g'oya tamsil asosida ifodalangan bo'lib, unda dunyoga berilgan kishi yaltiroq chivin misolida aks ettiriladi. "Zarbaft to'n" va "oltun yanglig' yashnar xil'at" orqali dunyo matohining zohiriy jozibasi tasvirlansa, "najosat uzra orom" ifodasi orqali uning botiniy jirkanchligi ochib beriladi. Shu tariqa, tashbeh va tamsil san'atlari vositasida dunyoviy ne'matlarning aldanchi mohiyati keskin kontrastda namoyon etiladi.

Mazkur qiyos doirasida tazod san'ati ham yaqqol ko'zga tashlanadi: "oltun yanglig' yashnar xil'at" ↔ "najosat uzra orom" qarama-qarshiligi orqali zohir va botin o'rtasidagi tafovut keskinlashtiriladi. Bu esa o'quvchini tashqi jozibaga aldanmaslikka undovchi kuchli estetik va axloqiy ta'sir uyg'otadi.

Shuningdek, qit'ada qo'llangan "xiffatdin" so'zi ham iyhom san'atini yuzaga keltirgan. Uning birinchi ma'nosi "yengillik" bo'lib [Навоий асарлари луғати, 1972:657], dunyo ahlining go'yoki hech qanday qiyinchiliksiz, "yengil" hayot kechirayotgandek ko'rinishini bildiradi. Ikkinchi ma'nosi esa "yengiltabiatlilik" bo'lib [Навоий асарлари луғати, 1972:657], dunyoparastlikning asl ildizi — ma'naviy yuzakilik va kaltabinlik ekanini anglatadi. Shu tariqa, bitta so'z doirasida ikki qatlamli mazmun berilishi qit'aning badiiy ta'sir kuchini oshiradi.

Ayni damda "xiffat" so'zi pashshaning yengil uchishi bilan ham bog'liq bo'lib, bu orqali muallif dunyoparastlarning zohiriy "parvozi"ni aslida ma'naviy tubanlik belgisi sifatida talqin etadi.



Bundan tashqari, asarda “takalluf”, “zarbaft”, “xil’at”, “oltun”, “dunyo matoi” kabi birliklar bir tomonda, “chibin”, “najosat” kabi birliklar ikkinchi tomonda jamlanib, o‘zaro tanosub hosil qiladi. Ushbu tanosub dunyoparastlikning ikki qutbli mohiyatini — zohiriy joziba va botiniy tubanlikni — bir butun tizimda ochib berishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan qit’a nafaqat ijtimoiy-tanqidiy, balki chuqur tasavvufiy mazmunga ham ega bo‘lib, unda dunyoning aldamchi jozibasidan ogoh bo‘lish g‘oyasi ilgari suriladi. Shu tariqa, mazkur qit’ada yuksak g‘oya yorqin obrazlar va ta’sirli badiiy tasvir vositalari orqali poetik talqin etilgan.

Umuman, dunyoparast kishilarning najosatga intiluvchi pashshaga qiyoslanishi Navoiy ijodida ko‘p murojaat etilgan ifodalardan bo‘lib, jumladan, “Mahbub ul-qulub”dan o‘rin olgan quyidagi fikrlar bilan ham mazmuniy hamohanglik kasb etadi: *“Zarbaft kisvatlig‘ dunyoguzin najosat ustidagi yiltirog‘uchi chibin”* [Навоий, 1998:25].

Muayyan talqinning qayta-qayta uchrashi uning muallif ijodida naqadar markaziy o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Xususan, Navoiy poetikasida dunyo obrazi ifodasida “yaltiroq chivin” va “najosat” tushunchalariga tez-tez murojaat qilinishi tasodifiy emas, balki izchil shakllangan falsafiy qarash tizimi mavjudligidan dalolat beradi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy qit’alarida dunyo obrazi oddiy tasviriy unsur emas, balki murakkab semantik qatlamlarga ega bo‘lgan ko‘p qirrali badiiy-falsafiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan u nafaqat muayyan voqelikni aks ettiruvchi obraz, balki inson va borliq munosabatini ifodalovchi konseptual model vazifasini ham bajaradi. Ushbu model doirasida dunyoga munosabat biryoqlama inkor yoki tasdiq shaklida emas, balki tasavvufiy-falsafiy mushohada asosida ziddiyatlar, ramziy ifodalar va badiiy-tasvir vositalari orqali chuqur ochib beriladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Фаройиб ус-сиғар/ Хазойин ул-маоний. МАТ. 20 жилдлик. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1988.
2. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-кулуб. МАТ. 20 жилдлик. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998.
3. Жабборов Н. Маоний аҳлининг соҳибқирони. – Тошкент: Адабиёт, 2021.
4. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
5. Куръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси (Таржимон ва изоҳлар муаллифи: Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф). – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022.
6. Хо‘jayeva Sh. Navoiy lirikasida dunyo obrazi talqinining badiiy-uslubiy jihatlari. / Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2025. № 4.